

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2022 №1

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
**AХВОРОТНОМАСИ**



**В Е С Т Н И К**  
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент



*Выпуск набран и сверстан на компьютерном издательском комплексе редакционно-издательского отдела Ташкентской медицинской академии*

*Начальник отдела: М. Н. Аслонов*

*Редактор русского текста : О.А. Козлова*

*Редактор узбекского текста: М.Г. Файзиева*

*Редактор английского текста: А.Х. Жураев*

*Компьютерная корректура: З.Т. Алюшева*

*Учредитель: Ташкентская медицинская академия*

*Издание зарегистрировано в Ташкентском Городском управлении печати и информации*

*Регистрационное свидетельство 02-00128*

*Журнал внесен в список, утвержденный приказом № 201/3 от 30 декабря 2013года*

*реестром ВАК в раздел медицинских наук*

*Рукописи, оформленные в соответствии*

*с прилагаемыми правилами, просим направлять*

*по адресу: 100109, Ташкент, ул. Фароби, 2,*

*Главный учебный корпус ТМА,*

*4-й этаж, комната 444.*

*Контактный телефон: 214 90 64*

*e-mail: rio-tma@mail.ru*

*rio@tma.uz*

*Формат 60x84 1/8. Усл. печ. л. 9,75.*

*Гарнитура «Cambria».*

*Тираж 150.*

*Цена договорная.*

*Отпечатано на ризографе редакционно-издательского отдела ТМА. 100109, Ташкент, ул. Фароби, 2.*

Вестник ТМА № 1, 2022

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ**

**Главный редактор**

проф. А.К. Шадманов

**Заместитель главного редактора**

проф. О.Р.Тешаев

**Ответственный секретарь**

проф. Ф.Х.Иноятова

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ**

акад. Аляви А.Л.

проф. Билалов Э.Н.

проф. Гадаев А.Г.

акад. Каримов Ш.И.

проф. Комилов Х.П.

акад. Курбанов Р.Д.

проф. Мавлянов И.Р.

акад. Назыров Ф.Г.

проф. Нажмутдинова Д.К.

проф. Саломова Ф.И.

акад. Соатов Т.С.

проф. Ходжибеков М.Х.

проф. Шайхова Г.И.

проф. Жае Вук Чои

**Члены редакционноого совета**

д.п.н. Абдуллаева Р.М. (Ташкент)

проф. Акилов Ф.О. (Ташкент)

проф. Аллаева М.Д. (Ташкент)

проф. Ахмедов Р.М. (Бухара)

проф. Гиясов З.А. (Ташкент)

проф. Ирискулов Б.У. (Ташкент)

проф. Каримов М.Ш. (Ташкент)

проф. Каюмов У.К. (Ташкент)

проф. Исраилов Р.И. (Ташкент)

проф. Охунов А.О. (Ташкент)

проф. Парпиева Н.Н. (Ташкент)

проф. Рахимбаева Г.С. (Ташкент) проф.

Ризамухамедова М.З. (Ташкент)

проф. Сабиров У.Ю. (Ташкент)

проф. Сабирова Р.А. (Ташкент)

проф. Халиков П.Х. (Ташкент)

проф. Хамраев А.А. (Ташкент)

проф. Холматова Б.Т. (Ташкент)

проф. Шагазатова Б.Х. (Ташкент)

**EDITORIAL BOARD**

**Editor in chief**

prof. A.K. Shadmanov

**Deputy Chief Editor**

prof. O.R. Teshayev

**Responsible secretary**

prof. F.Kh. Inoyatova

**EDITORIAL TEAM**

academician Alyavi A.L.

prof. Bilalov E.N.

prof. Gadaev A.G.

academician Karimov Sh.I.

prof. Komilov Kh. P.

academician Kurbanov R.D.

prof. Mavlyanov I.R.

academician Nazzyrov F.G.

prof. Najmutdinova D.K.

prof. Salomova F.I.

academician Soatov T.C.

prof. Khodjibekov M.X.

prof. Shaykhova G.I.

prof. Jae Wook Choi

**EDITORIAL COUNCIL**

DSc. Abdullaeva R.M.

prof. Akilov F.O. (Tashkent)

prof. Allaeva M.D. (Tashkent)

prof. Akhmedov R.M. (Bukhara)

prof. Giyasov Z.A. (Tashkent)

prof. Iriskulov B.U. (Tashkent)

prof. Karimov M.Sh. (Tashkent)

prof. Kayumov U.K. (Tashkent)

prof. Israilov R.I. (Tashkent)

prof. Okhunov A.A. (Tashkent)

prof. Parpieva N.N. (Tashkent)

prof. Rakhimbaeva G.S. (Tashkent)

prof. Rizamukhamedova M.Z. (Tashkent)

prof. Sabirov U.Y. (Tashkent)

prof. Sabirova R.A. (Tashkent)

prof. Khalikov P.Kh. (Tashkent)

prof. Khamraev A.A. (Tashkent)

prof. Kholmatova B.T. (Tashkent)

prof. Shagzatova B.X. (Tashkent)

*Journal edited and printed in the computer of Tashkent  
Medical Academy editorial department*

*Editorial board of Tashkent Medical Academy*

*Head of the department: M.N. Aslonov*

*Russian language editor: O.A. Kozlova*

*Uzbek language editor: M.G. Fayzieva*

*English language editor: A.X. Juraev*

*Corrector: Z.T. Alyusheva*

*Organizer: Tashkent Medical Academy*

*Publication registered in editorial and information  
department of Tashkent city*

*Registered certificate 02-00128*

*Journal approved and numbered under the order 201/3 from 30 of  
December 2013 in Medical Sciences department OF SUPREME ATTESTATION*

**COMMISSION**

**COMPLETED MANUSCRIPTS PLEASE SEND following address:**

*2-Farobiy street, 4 floor room 444. Administration building of TMA.  
Tashkent. 100109, Toshkent, ul. Farobi, 2, TMA bosh o'quv binosi, 4-qavat,  
444-xona.*

*Contact number: 71- 214 90 64*

*e-mail: rio-tma@mail.ru. rio@tma.uz*

*Format 60x84 1/8. Usl. printer. l. 9.75.*

*Listening means «Cambria».*

*Circulation 150.*

*Negotiable price*

*Printed in TMA editorial and publisher department risograph*

*2 Farobiy street, Tashkent, 100109.*

# СОДЕРЖАНИЕ

# CONTENT

НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ	NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES	
Raximov A.F. ARALASH TA'LIM - "BLENDED LEARNING" VA AG'DARILGAN TA'LIM - "FLIPPED CLASSROOM"	Rakhimov A.F. "BLENDED LEARNING" AND "FLIPPED CLASSROOM"	8
ОБЗОРЫ	REVIEWS	
Ахмедова М.Д., Султонова Г.Ю. МИКРОФЛОРА КИШЕЧНИКА И ЦИРРОЗ ПЕЧЕНИ ВИРУСНОЙ ЭТИОЛОГИИ	Akhmedova M.D., Sultonova G.Yu. INTESTINAL MICROFLORA AND LIVER CIRROSIS OF VIRAL ETIOLOGY	11
Иноятова Ф.Х., Рахматуллаева Г.К., Вахобова Н.А., Миркомиллов Э.М. РОЛЬ НЕЙРОТРОПНЫХ АУТОАНТИТЕЛ В ДИАГНОСТИКЕ ПОРАЖЕНИЙ НЕРВНОЙ СИСТЕМЫ, АССОЦИИРОВАННЫХ С COVID-19	Inoyatova F.Kh., Rakhmatullaeva G.K., Vahobova N.A., Mirkomilov El.M. THE ROLE OF NEUROTROPIC AUTOANTIBODIES IN THE DIAGNOSIS OF NERVOUS SYSTEM LESIONS ASSOCIATED WITH COVID-19	15
Lyan E.M., Ashurov Z.Sh., Yadgarova N.F., Kevorkova M.A., Vosikov B.A. GENERALLASHGAN HAVOTIRLI KASALLIKLARDA KOGNITIV HULQ TERAPIYASIDAN FOYDALANISH	Lyan E.M., Ashurov Z.Sh., Yadgarova N.F., Kevorkova M.A., Vosikov B.A. COGNITIVE BEHAVIORAL THERAPY FOR GENERALIZED ANXIETY DISORDER	21
Najmutdinova D.K., Urinbayeva D.A., Sadikova N.G., Ergashov N.Sh. 2-TOIFA QANDLI DIABET BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA MIKROANGIOPATIK ASORATLARNING OLDINI OLISH VA DAVOLASHDA FENOFIBRATNING ROLI	Najmutdinova D.K., Urinbayeva D.A., Sadikova N.G., Ergashov N.Sh. THE ROLE OF FENOFIBRATE (TRICOR) IN THE COMPLEX TREATMENT OF MICROANGIOPATHIC COMPLICATIONS IN PATIENTS WITH TYPE 2 DIABETES	25
Нуёзова Ш.Х., Камышов С.В., Баленков О.Ю., Кобиллов О.Р. ПРОТООНКОГЕНЫ КАК ПРЕДИКТИВНЫЕ ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ Niyozova Sh.Kh., Kamyshev S.V., Balenkov O.Yu. ПРОТИВООПУХОЛЕВОЙ ТЕРАПИИ МЕТАСТАТИЧЕСКОГО КОЛОРЕКТАЛЬНОГО РАКА	Niyozova Sh.Kh., Kamyshev S.V., Balenkov O.Yu., Kobillov O.R. PROTOONCOGENS AS PREDICTIVE FACTORS OF THE EFFECTIVENESS OF ANTITUMOR THERAPY OF METASTATIC COLORECTAL CANCER	30
Рузикулов М.М., Кариев Г.М., Ташматов Ш.Н. ДИАГНОСТИКА И МИКРОХИРУРГИЧЕСКОЕ ЛЕЧЕНИЕ БОЛЬНЫХ С БОЛЬШИМИ И ГИГАНТСКИМИ АНЕВРИЗМАМИ СОСУДОВ ГОЛОВНОГО МОЗГА	Ruzikulov M.M., Kariev G.M., Tashmatov Sh.N. DIAGNOSTICS AND MICROSURGICAL TREATMENT OF PATIENTS WITH LARGE AND GIANT CEREBRAL VASCULAR ANEURYSMS	34
Сабиров У.Ю., Колдарова Э.В., Иноятова Н.Р. СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ УГРЕВОЙ БОЛЕЗНИ	Sabirov U.Yu, Koldarova E.V., Inoyatova N.R. MODERN METHODS OF TREATMENT OF ACNE	38
Туйчиев Л.Н., Ахмедова М.Д., Шокиров М.К., Анваров Ж.А. ФАСЦИОЛЁЗ – ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАБЫТОГО ТРОПИЧЕСКОГО ПАРАЗИТОЗА	Tuychiev L.N., Akhmedova M.D., Shokirov M.K., Anvarov J.A. FASCIOLESI - EPIDEMIOLOGICAL FEATURES OF NEGLECTED TROPICAL PARASITOSIS	45
Хакимов М.Ш., Цай В.Э., Элмуродов И.У. СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЛЕЧЕНИЯ ОСТРОЙ СПАЕЧНОЙ КИШЕЧНОЙ НЕПРОХОДИМОСТИ	Khakimov M.Sh., Tsai V.E., Elmurodov I.U. MODERN PROBLEMS OF TREATMENT ACUTE ADHESIVE INTESTINAL OBSTRUCTION	48
Shadmanova L.Sh., Yadgarova N.F., Lyan Y.M., Rajapov M.Sh., Kholmuminov A.E., Vosikov B.A. INVOLUTSION DAVRDA DEPRESSIV BUZILISHLARNING RIVOJLANISHINING XAVF OMILLARI	Shadmanova L.Sh., Yadgarova N.F., Lyan Y.M., Rajapov M.Sh., Kholmuminov A.E., Vosikov B.A. DEPRESSIVE DISORDERS RISK FACTORS IN THE LATE-LIFE PERIOD	52
Шодмонов А.К., Шавахабов Ш.Ш., Рихсибоев Ж.Р., Шодмонов Ж.А. РОЛЬ ЭКСТРАКТОВ РАСТЕНИЙ, НУТРИЕНТОВ И АНТИОКСИДАНТОВ В ЛЕЧЕНИИ ЭРЕКТИЛЬНОЙ ДИСФУНКЦИИ И МУЖСКОГО БЕСПЛОДИЯ	Shodmonov A.K., Shavakhabov Sh., Rikhsiboev J.R., Shodmonov J.A. THE ROLE OF PLANT EXTRACTS, NUTRIENTS AND ANTIOXIDANTS IN THE TREATMENT OF ERECTILE DYSFUNCTION AND MALE INFERTILITY.	56
ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ БИОЛОГИЯ И МЕДИЦИНА	EXPERIMENTAL BIOLOGY AND MEDICINE	
Iriskulov B.U., Tadjibaeva R.B., Dustov F.A. CHANGES IN THE DYNAMIC BLOOD VISCOSITY AGAINST THE BACKGROUND OF THE INTRODUCTION OF THE DOMESTIC BIOSTIMULATING DRUG LACTOFLOL IN THE HYDRONEPHROTIC TRANSFORMATION OF THE KIDNEYS	Iriskulov B.U., Tadjibaeva R.B., Do'stov F.A. TAJRIBAVIY BUYRAK GIDRONEFROZIDA BIOSTIMULLOVCHI LAKTOFLOR PREPARATINI TERI OSTIGA QO'LLANILISHINI QON QOVUSHQOQLIGI DINAMIKASIGA TA'SIRI	61
Касимов Э.Р., Омонова М.Ж., Мусаев Х.А., Юнусалиева М.У. СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА НОВОГО ОТЕЧЕСТВЕННОГО ПРЕПАРАТА ЦИТКОРНИТ НА АНТИГИПОКСИЧЕСКУЮ АКТИВНОСТЬ И ОСТРУЮ ТОКСИЧНОСТЬ НА МОДЕЛИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ЖИВОТНЫХ	Kasimov E.R., Omonova M.J., Musayev X.A., Yunusaliyeva M.U. COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF THE NEW DOMESTIC DRUG CYTOKARTIN FOR ANTIHYPOXIC ACTIVITY AND ACUTE TOXICITY IN EXPERIMENTAL ANIMAL MODELS	64

Тургунов Ш.Ш., Ботиров А.К., Носиров М.М., Ботиров Ж.А. РЕЗУЛЬТАТЫ БАКТЕРИОЛОГИЧЕСКОГО И МОРФОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЙ В ЭКСПЕРИМЕНТЕ ПРИ МОДЕЛИРОВАНИИ НЕСОСТОЯТЕЛЬНОСТИ ШВОВ ТОЛСТОКИШЕЧНЫХ АНАСТОМОЗОВ	Turgunov Sh.Sh., Botirov A.K., Nosirov M.M., Botirov J.A. THE RESULTS OF BACTERIOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL STUDIES IN THE EXPERIMENTAL MODELING OF THE LEAKAGE OF COLONIC ANASTOMOSES	67
Эрназаров Х.И., Зохилов А.Р., Эргашев У.Ю., Исраилов Р.И. ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКАЯ КАРТИНА ЖИЗНЕННО ВАЖНЫХ ОРГАНОВ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ДИАБЕТИЧЕСКОЙ СТОПЫ	Ernazarov Kh.I., Zohirov A.R., Ergashev U.Yu., Israilov R.I. PATHOLOGICAL PICTURE OF VITAL ORGANS IN AN EXPERIMENTAL MODEL OF DIABETIC FOOT	74
<b>КЛИНИЧЕСКАЯ МЕДИЦИНА</b>		
<b>CLINICAL MEDICINE</b>		
Јu Seunghwan, Салахов Т.А., Шамансурова З.М., Исмаилов С.И. УРОВЕНЬ ПАРАТИРЕОИДНОГО ГОРМОНА У ЛИЦ НА ПРОГРАММНОМ ГЕМОДИАЛИЗЕ	Ju Seunghwan, Salakhov T.A., Shamansurova Z.M., Ismailov S.I. PARATHYROID HORMONE LEVEL IN PEOPLE ON PROGRAMMED HEMODIALYSIS	80
Абдуяминова З.Д. КЛИНИКО-ГЕНЕТИЧЕСКИЕ ПРИЗНАКИ ПАТОЛОГИИ ГЕНОВ SCN1A, SCN2A В ФЕНОТИПЕ ПАЦИЕНТОВ С ЭПИЛЕПСИЕЙ И НАРУШЕНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТА/РАЗВИТИЯ	Abduyaminova Z.D. THE CLINICAL AND GENETIC FEATURES OF SCN1A, SCN2A GENE RELATED PHENOTYPES IN PATIENTS WITH EPILEPSY AND INTELLECTUAL/DEVELOPMENTAL DISABILITY	85
Ахмадалиева У.К. АНДИЖОНДА УЮШМАГАН АҲОЛИ ЎРТАСИДА ДИАСТОЛИК ҚОН БОСИМИНИНГ ЎРТАЧА ДАРАЖАЛАРИНИНГ ТАРҚАЛИШИ	Ahmadaliev U.K. SPREAD OF AVERAGE DEGREES OF THE ARTERIAL PRESSURE AMONG UNORGANIZED POPULATION OF ANDIJAN TOWN	92
Бергер И.В., Махмудова А.Д., Ачилова О.У., Шамсутдинова М.И., Сабитходжаева С.У., Таджиева З.М. КОАГУЛОПАТИЯ И МАРКЕРЫ НЕБЛАГОПРИЯТНОГО ИСХОДА	Berger I.V., Makhmudova A.D., Achilova O.U., Shamsutdinova M.I., Sabitkhojaeva S.U., Tajjeva Z.M. COAGULOPATHY AND MARKERS OF ADVERSE OUTCOMES	95
Бобомуротов Т.А., Каримова Н.А., Турсунбаев А.К. ТЕЧЕНИЕ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ У ДЕТЕЙ	Bobomurotov T.A., Karimova N.A., Tursunbaev A.K. THE COURSE OF CORONAVIRUS INFECTION IN CHILDREN	99
Валиева М.Ю., Салахитдинов З.С. СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА ВЫЯВЛЯЕМОСТИ ПРЕДГИПЕРТЕНЗИИ И АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИИ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ОСНОВНЫХ ФАКТОРОВ РИСКА В УСЛОВИЯХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ	Valieva M.Yu., Salakhitdinov Z.S. COMPARATIVE EVALUATION OF THE DETECTION OF PREHYPERTENSIVE AND ARTERIAL HYPERTENSION DEPENDING ON THE MAJOR RISK FACTORS THE POPULATION IN THE CONDITIONS OF THE FERGANA VALLEY	104
Джумабаева С.Э., Маматова М.Б., Валиева М.Ю. К ВОПРОСУ КОМОРИДНОСТИ У ЖЕНЩИН С АНЕМИЯМИ	Dzhumabayeva S.E., Mamatova M.B., Valieva M.Yu. ON THE QUESTION OF COMORBIDITY IN WOMEN WITH ANEMIA	108
Қодиров Б.Б., Ахмадалиева У.К., Максумова Д.К. НЕЛИСОВАСТЕР PУLORI ЭРАДИКАЦИЯСИНИ САМАРАДОРЛИГИНИ НАЖАС НАМУНАЛАРИДА НР-АНТИГЕНИНИ АНИҚЛАШ ЁРДАМИДА БАҲОЛАШ	Kadirov B.B., Akhmadaliev U.K., Maksumova D.K. EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF ERADICATION OF HELICOBACTER PYLORI BASED ON THE RESULTS OF DETERMINATION OF HP-ANTIGEN IN FECAL SAMPLES	111
Курбаниязов З.Б., Рахманов К.Э., Мизамов Ф.О., Анарбоев С.А. КОРРЕКЦИЯ КУРСА ХИМИОТЕРАПИИ В ПРОФИЛАКТИКЕ РЕЦИДИВА ЭХИНОКОККОЗА ПЕЧЕНИ	Kurbaniyazov Z.B., Rakhmanov K.E., Mizamov F.O., Anarboev S.A. CORRECTION OF THE COURSE OF CHEMOTHERAPY IN THE PREVENTION OF RECURRENCE OF LIVER ECHINOCOCCOSIS	114
Lochinov F.N., Shodiev G.B., Miraxmedov Sh.M., Mirzaxmedov J.M., Tashpo'latov. F.X. TOSHKENT VILOYATI AHOLISI ORASIDA SUITSIDDAN YUZ BERGAN O' LIM HOLATLARINING SUD-TIBBIY TAHLILI	Lochinov F.N., Shodiev G.B., Mirakhmedov Sh.M., Mirzakhmedov J.M., Tashpulatov F.X. FORENSIC MEDICAL ANALYSIS OF MORTALITIES RELATED TO SUICIDE IN THE POPULATION OF TASHKENT REGION	118
Madirimova L.O., Yusupova O.B., Ermatov N.Zh. COMPARATIVE ANALYSIS OF PSYCHOEMOTIONAL DISORDERS IN PATIENTS WITH LIVER DISEASE AND RHEUMATOLOGY	Madirimova L.O., Yusupova O.B., Ermatov N.Zh. JIGAR KASALLIKLARI VA REVMOLOGIK BEMORLARDA PSIXOEMOTSIONAL BUZILISHLARNING QIYOSIY TAHLILI	122
Мамедов В.З. ПЕРЕДНЯЯ АКТИВНАЯ РИНОМАНОМЕТРИЯ В МОНИТОРИНГЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СЕПТОПЛАСТИКИ	Mammadov V.Z. ANTERIOR ACTIVE RHYNOMANOMETRY IN MONITORING THE EFFICIENCY OF SEPTOPLASTY	125
Матмуротов К.Ж., Саттаров И.С., Атажанов Т.Ш., Саитов Д.Н., Душамов И.Т., Рузметов Н.А. ХАРАКТЕР И ЧАСТОТА ПОРАЖЕНИЯ АРТЕРИАЛЬНЫХ БАССЕЙНОВ ПРИ СИНДРОМЕ ДИАБЕТИЧЕСКОЙ СТОПЫ	Matmurotov K.J., Sattarov I.S., Atajanov T.Sh., Saitov D.N., Dushamov I.T., Ruzmetov N.A. CHARACTER AND FREQUENCY OF ARTERIAL POOLS DAMAGE IN DIABETIC FOOT SYNDROME	128

Махсумова Д.К., Салохиддинов З.С., Махсумова Д.К. ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И ОЦЕНКА ИЗВЕСТНЫХ ФАКТОРОВ РИСКА ХРОНИЧЕСКИХ ГАСТРОДУОДЕНАЛЬНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У ВИЧ-ИНФИЦИРОВАННОЙ ПОПУЛЯЦИИ	Makhsumova D.K., Salokhiddinov Z.S., Maksumova D.K. EPIDEMIOLOGICAL CHARACTERISTICS AND ASSESSMENT OF KNOWN RISK FACTORS FOR CHRONIC GASTRODUODENAL DISEASES IN HIV-INFECTED POPULATION	132
Миррахимова М.Х., Курбанова Д.Р., Агзамхаджаева Н.С. АТОПИК ДЕРМАТИТЛИ БОЛАЛАРДА СУРУНКАЛИ ПАНКРЕАТИТНИ ДАВОЛАШ	Mirrakhimova M.Kh., Kurbanova D.R., Agzamkhadjaeva N.S. TREATMENT OF CHRONIC PANCREATITIS IN CHILDREN WITH ATOPIC DERMATITIS	135
Мухитдинова К.О., Алейник В.А., Бабич С.М., Негматшаева Х.Н., Ибрагимова С.Р., Шокирова С.М. ИЗМЕНЕНИЕ МАРКЕРОВ ВОСПАЛЕНИЯ У ЖЕНЩИН ПОД ВЛИЯНИЕМ ИНФЕКЦИОННЫХ ФАКТОРОВ НА РАННИХ СРОКАХ НЕВЫНАШИВАНИЯ БЕРЕМЕННОСТИ	Mukhitdinova K.O., Aleinik V.A., Babich S.M., Negmatshaeva H.N., Ibragimova S.R., Shokirova S.M. DYNAMICS OF INFLAMMATION MARKERS IN WOMEN UNDER THE INFLUENCE OF INFECTIOUS FACTORS IN THE EARLY STAGES OF MISCARRIAGE	140
Раджапова Г.Ф., Муминова З.А., Саиджалилова Д.Д. ВЗАИМОСВЯЗЬ ИЗМЕНЕНИЙ УРОВНЯ ТРОФОБЛАСТИЧЕСКОГО В-1-ГЛИКОПРОТЕИНА С РАЗВИТИЕМ ОСЛОЖНЕНИЙ БЕРЕМЕННОСТИ ПОСЛЕ ПЕРЕНЕСЕННОЙ COVID-19 ИНФЕКЦИИ ВО II ТРИМЕСТРЕ ГЕСТАЦИИ	Radjapova G.F., Muminova Z.A., Saijalilova D.D. THE CORRELATION OF CHANGES IN THE LEVEL OF TROPHOBLASTIC B-1-GLYCOPROTEIN WITH THE DEVELOPMENT OF PREGNANCY COMPLICATIONS AFTER SUFFERING COVID-19 INFECTION IN THE 2 <sup>ND</sup> TRIMESTER OF GESTATION	144
Рузikuлов М.М., Хазраткулов Р.Б., Ташматов Ш.Н. ТАКТИКА МИКРОХИРУРГИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ С БОЛЬШИМИ И ГИГАНТСКИМИ АРТЕРИАЛЬНЫМИ АНЕВРИЗМАМИ ГОЛОВНОГО МОЗГА В ОСТРОМ ПЕРИОДЕ СУБАРАХНОИДАЛЬНОГО КРОВОИЗЛИЯНИЯ	Ruzikulov M.M., Khazratkulov R.B., Tashmatov Sh.N. TACTICS OF MICROSURGICAL TREATMENT OF PATIENTS WITH LARGE AND GIANT ARTERIAL CEREBRAL ANEURYSMS IN THE ACUTE PERIOD OF SUBARACHNOID HEMORRHAGE	147
Тешаев О.Р., Рахмонова Г.Э., Уктамова Д.З., Хамидова М.А., Уктамов Д.З. COVID-19 ОФИР ДАРАЖАСИДА КЕЧАЁТГАН БЕМОЛЛАРДА РЕНТГЕНОЛОГИК ТЕКШИРУВЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ	Teshaev O.R., Rakhmonova G.E., Uktamova D.Z., Khamidova M.A., Uktamov D.Z. FEATURES OF X-RAY STUDIES IN PATIENTS WITH SEVERE COVID-19	150
Юсупалиходжаева С.Х., Турдиев А.Х., Усмонов Б.А. КЛИНИКО-ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ ПАРОДОНТА И ТВЕРДЫХ ТКАНЕЙ ЗУБОВ У БОЛЬНЫХ, ПЕРЕНЕСШИХ COVID-19	Yusupalikhodjaeva S.H., Turdiev A.H., Usmonov B.A. CLINICAL AND FUNCTIONAL STATE OF PERIODONTAL AND DENTAL HARD TISSUES IN PATIENTS WITH COVID	154
Юсупова Ш.К., Халимова З.Ю. ВЗАИМОСВЯЗЬ АЛЬДОСТЕРОНА И СТЕПЕНИ ОЖИРЕНИЯ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ 2-ГО ТИПА, АССОЦИИРОВАННОГО С ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ	Yusupova Sh.K., Khalimova Z.Yu. THE RELATIONSHIP BETWEEN ALDOSTERONE AND THE DEGREE OF OBESITY IN PATIENTS WITH TYPE 2 DIABETES MELLITUS ASSOCIATED WITH CHRONIC HEART FAILURE	157
Ярашев Т.Я. КЛИНИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СОЧЕТАННЫХ ТРАВМАТИЧЕСКИХ РАЗРЫВОВ ПЕЧЕНИ У ДЕТЕЙ	Yarashev T.Ya. CLINICAL CHARACTERISTICS OF COMBINED TRAUMATIC LIVER RUPTURES IN CHILDREN	161
Ярашев А.Р., Эшоннов О.Ш., Шабаетов Ж.К. ИНФОРМАЦИОННАЯ ЗНАЧИМОСТЬ НЕЙТРОФИЛЬНО-ЛИМФОЦИТАРНОГО СООТНОШЕНИЯ У БОЛЬНЫХ С ОСТРЫМ НАРУШЕНИЕМ МОЗГОВОГО КРОВООБРАЩЕНИЯ В КРИТИЧЕСКОМ СОСТОЯНИИ	Yarashev A.R., Eshonov O.Sh., Shabaev Zh.K. INFORMATIONAL SIGNIFICANCE OF THE NEUTROPHIL-LYMPHOCYTE RATIO IN CRITICALLY ILL PATIENTS WITH ACUTE CEREBROVASCULAR ACCIDENTS	165
<b>ГИГИЕНА, САНИТАРИЯ И ЭПИДЕМИОЛОГИЯ</b>	<b>HYGIENE, SANITATION AND EPIDEMIOLOGY</b>	
Ахмедова Д.Б., Уринов А.М. ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПНЕВМОКОНИОЗА И ЗАБОЛЕВАЕМОСТЬ ПНЕВМОКОНИОЗОМ В СТРАНАХ СНГ И ЗА РУБЕЖОМ	Akhmedova D.B., Urinov A.M. THE INCIDENCE OF PNEUMOCONIOSIS IN THE CIS COUNTRIES AND ABROAD	168
Duschanov B.A., Ibadullaeva S.S., Ermatov N.J. AHOLINING SALOMATLIK KO'RSATKICHLARIGA XAVF OMILLARINING TA'SIRINI O'RGANISH NATIJALARI	Duschanov B.A., Ibadullaeva S.S., Ermatov N.J. THE INFLUENCE OF RISK FACTORS ON POPULATION HEALTH INDICATORS	171
Искандарова Г.Т., Юсупходжаева А.М. ЧИҚИНДИ СУВЛАРНИ БИОЛОГИК ТОЗАЛАШДА АЭРОТЕНКАЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИ	Iskandarova G.T., Yusupkhodzhaeva A.M. EFFICIENCY INDICATORS OF AEROTANKS IN BIOLOGICAL WASTEWATER TREATMENT	175
Mamatqulov B.M., Nematov A.A. SURUNKALI KASALLIKLARI BOR BEMORLARDA COVID-19 KASALLIGI KECHISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	Mamatkulov B.M., Nematov A.A. SPECIFIC FEATURES OF COVID-19 IN PATIENTS WITH CHRONIC DISEASES	179

Матназарова Г.С., Азизова Ф.Л., Брянцева Е.В., Хамзаева Н.Т. ВАКЦИНОПРОФИЛАКТИКА COVID-19 В УЗБЕКИСТАНЕ	Matnazarova G.S., Azizova F.L., Bryantseva E.V., Khamzaeva N.T. VACCINE PREVENTION OF COVID-19 IN UZBEKISTAN	183
Саломова Ф.И., Мирсагатова М.Р., Садуллаева Х.А., Ахмадалиева Н.О. АКТУАЛЬНОСТЬ ГИГИЕНИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МАГНИТНО-РЕЗОНАНСНОЙ ТОМОГРАФИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	Salomova F.I., Mirsagatova M.R., Sadullaeva H.A., Akhmadaliev N.O. THE RELEVANCE OF THE HYGIENIC ASSESSMENT OF THE USE OF MAGNETIC RESONANCE IMAGING IN UZBEKISTAN	187
Шайхова Г.И., Азимов Л.А., Зокирхонова Ш.А., Шайхова М.А. СУРУНКАЛИ ЎПКА КАСАЛЛИГИ БИЛАН ОФРИГАН БОЛАЛАР ОИЛАСИНИНГ ТИББИЙ-ИЖТИМОЙ ТАВСИФИ	Shaikhova G.I., Azimov L.A., Zokirkhonova Sh.A., Shaikhova M.A. MEDICAL AND SOCIAL CHARACTERISTICS OF SICK CHILDREN AND THEIR FAMILIES	191
<b>ПОМОЩЬ ПРАКТИЧЕСКОМУ ВРАЧУ</b>	<b>HELPING A PRACTITIONER</b>	
Бекназаров Ш.Ю., Бахриев И.И., Ганиева Н.Х., Исламов Ш.Э., Бекназаров Ж.Ш. ВРАЧЕБНАЯ ОШИБКА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ, ИСХОД	Beknazarov Sh.Yu., Bakhriev I.I., Ganieva N.Kh., Islamov Sh.E., Beknazarov Zh.Sh. MEDICAL ERROR, CONCEPT, TYPES, OUTCOME	196
Даминова Л.Т., Абдашимов З.Б., Касымов А.Ш. ОПТИМИЗИРОВАННЫЙ ПОДХОД К ВЫБОРУ НЕСТЕРОИДНЫХ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ И АНАЛЬГЕТИКОВ У НЕВРОЛОГИЧЕСКИХ БОЛЬНЫХ	Daminova L.T., Abdashimov Z.B., Kasymov A.Sh. AN OPTIMIZED APPROACH TO THE CHOICE OF NON-STEROIDAL ANTI-INFLAMMATORY DRUGS AND ANALGESICS IN NEUROLOGICAL PATIENTS	200
Ризаев Ж.А., Азизов Б.С., Эгамов Х.Х. ТЕРИ ЛЕЙШМАНИОЗИ ЭПИДЕМИОЛОГИЯСИ (КАСАЛЛИК, ХАВФ ГУРУҲЛАРИ, ЮҚИШ ЙЎЛЛАРИ)	Rizaev J.A., Azizov B.S., Egamov H.H. EPIDEMIOLOGY OF SKIN LEISHMANIOSIS (DISEASE, RISK GROUPS, WAYS OF TRANSMISSION)	203

## SURUNKALI KASALLIKLARI BOR BEMORLARDA COVID-19 KASALLIGI KECHISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamatqulov B.M., Nematov A.A.

## ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ COVID-19 У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ

Маматкулов Б.М., Нематов А.А.

## SPECIFIC FEATURES OF COVID-19 IN PATIENTS WITH CHRONIC DISEASES

Mamatkulov B.M., Nematov A.A.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

**Цель:** изучение особенностей течения COVID-19 у лиц с хроническими заболеваниями старших возрастных групп, находившихся на лечении в реанимационных и обычных палатах. **Материал и методы:** официальная статистика распространенности коронавирусной инфекции в Узбекистане в 2020-2021 гг., статистический анализ первичных медицинских данных больных, пролеченных в Республиканской специальной инфекционной больнице Зангиота 2, ретроспективный метод исследования. **Результаты:** 88,6% пациентов в реанимации были в возрасте 51-61 года и старше. У 974 было диагностировано хроническое заболевание, средняя продолжительность лечения у них составила  $12,3 \pm 0,17$  дня, а у 888 больных без хронического заболевания —  $9,5 \pm 0,15$  дня. **Выводы:** большая доля больных, находившихся в стационарах страны в отделении реанимации ( $67,5 \pm 0,45\%$ ), приходится в основном на возрастную группу 61 года и старше.

**Ключевые слова:** COVID-19, SARS-CoV-2 (тяжелый острый респираторный синдром коронавирус-2), хронические заболевания, отделение интенсивной терапии.

**Objective:** To study the share of treatment in intensive care and regular wards among the age groups of patients with COVID-19 and the features of the course of COVID-19 in patients with chronic diseases. **Materials and methods:** Official statistics on the prevalence of coronavirus infection in Uzbekistan in 2020-2021, statistical analysis of primary medical data of patients treated at the Zangiota 2 Republican Special Infectious Diseases Hospital, retrospective research method. **Results:** 88.6% of patients in intensive care are in the age group of 51-61 years and older. In 974 (52.3%) patients, a chronic disease was diagnosed and the average duration of treatment was  $12.3 \pm 0.17$  days, and in 888 (47.7%) patients without a chronic disease, 1.15 days) and the average duration of treatment was  $9.5 \pm 0.15$  days. **Conclusions:** The proportion of patients treated in the country's hospitals in the intensive care unit ( $67.5 \pm 0.45\%$ ) falls mainly on the age group of 61 years and older.

**Key words:** COVID-19, SARS-CoV-2 (severe acute respiratory syndrome coronavirus-2), chronic diseases, intensive care unit.

2019-yil dekabr oyida Xitoyning Uxan shahrida "kelib chiqishi noma'lum pnevmoniya" holatlari qayd etildi. Bir necha kun o'tgach, Xitoy sog'liqni saqlash tashkilotlari ushbu holatlarning koronavirusinfeksiyasi bilan bog'liqligini tasdiqladi [12] va u keltirib chiqargan kasallik JSST tomonidan COVID-19 kasalligi deya e'lon qilindi.

2020-yil 25-fevral holatiga ko'ra, Xitoy Xalq Respublikasi sog'liqni saqlash milliy komissiyasi tomonidan 77 658 ta COVID-19 kasalligi tasdiqlangan, shu jumladan ularning 9 162 tasi og'ir holatda va bundan 2 663 tasida o'lim holatlari kuzatilgani haqida xabar berildi [4]. Boshqa bir olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra 41 nafar aniqlangan bemorlarning klinik xususiyatlarini birinchi marta ma'lum qilishdi va ularning 13 tasida (32%) yurak qon-tomir kasalliklari, diabet, gipertenziya va surunkali obstruktiv kabi surunkali kasalliklari mavjudligi haqidagi tibbiy ma'lumotlar qayd etilgan [2]. Keyinchalik COVID-19 bilan kasallangan 138 ta holatdan 64 (46,4%) ta bemorda hamroh kasalligi borligi aniqlandi. Shuni ta'kidlash kerakki surunkali kasalligi bor bemorlarning boshqa bemorlarga qaraganda reanimatsiya bo'limiga yotqizilishi ko'proq (72,2%) ulushni tashkil qilmoqda. Bu shuni ko'rsatadiki, surunkali kasalliklar, bemorlarni og'ir holatlarga olib kelishi uchun xavf omillari bo'lishi mumkin [2,8].

Kexsa va surunkali kasalligi bor bemorlar SARS-CoV-2 ga ko'proq moyil bo'lishi mumkin [3]. Ushbu surunkali kasalliklarning tarqalishini baholash, SARS-CoV-2 bilan kasallangan bemorlarda asoratlarini yumshatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. COVID-19 kasalligi kechishi bo'yicha har-xil og'irlik darajalariga ega. Bu darajalar statsionar yordam, bemorlarni sun'iy nafas oldirish uchun intubatsiya qilish mumkin bo'lgan reanimatsiya bo'limlariga va umumiy parvarishga qarab o'zgarishi mumkin [5,11]. Bundan tashqari bemorning yoshi va yondosh kasalliklari kabi xususiyatlari kasallik kechishining og'irligiga [5,13,1] va kasalxonada qolish muddatiga ta'sir qilishi mumkin. Ishonchliroq natijalarga erishish uchun biz nafaqat kasallikni og'ir va o'ta og'ir holatda o'tkazgan bemorlarda surunkali kasalliklarning tarqalishini baholashga, balki og'ir bo'lmagan bemorlarga nisbatan ham kasalliklar xavfini baholashga imkon beradigan batafsil ma'lumotlarni taqdim etamiz. Taqdim etilgan ma'lumotlar bemorlarga COVID-19 bilan kasallanishning oldini olish va kelgusida shifoxona xizmatlariga bo'lgan talabni ishlab chiqishga yordam beradi. Shifoxona xizmatlariga bo'lgan talabni aniqlash uchun kasalxonaga yotqizilishi kerak bo'lgan bemorlar sonini va xar bir kishi statsionar yordamga qancha vaqt muhtoj bo'lishini taxmin qilish kerak. Shu bilan bir qa-



torda, kasalxonalarda qolish muddatini baholash individual bemorlarni kuzatishni talab qiladi.

Davolashning samarali usullari ko'payishi xodimlar, o'rinlar, va jihozlar sonining yetariligi, parvarishning davomiyligi va darajasiga ta'sir qilishi mumkin. Agar ushbu ko'rsatkichlar farqi sezilarli darajada bo'lsa kerakli o'rinlar sonini aniq aniqlash uchun imkoniyatlarni rejalashtirishda ushbu xususiyatlarni hisobga olish kerak bo'ladi. Bo'limlarda bemorlarning davolanish muddati Xitoyda o'rtacha 4 kundan 53 kungacha, Xitoydan tashqari boshqa mamlakatlarda 4 kundan 21 kungacha bo'lgan. Reanimatsiyada qolish muddati Xitoyda 6 kundan 12 kungacha boshqa mamlakatlarda 4 kundan 19 kungacha. Xulosa qilib aytganda bo'limlarda o'rtacha davolanish muddati Xitoyda 14 kun bo'lsa, boshqa mamlakatlarda 5 kuni tashkil qilmoqda. Reanimatsiyada bemorlar uchun 8 kun (Xitoy uchun), boshqa mamlakatlar uchun 7 kuni tashkil qilmoqda [7].

### Tadqiqot maqsadi

COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning yosh guruhlari orasida reanimatsiya va oddiy bo'limlarda davolanish ulushini va surunkali kasalliklari bor bemorlarda COVID-19 kasalligining kechish xususiyatlarini o'rganish.

### Material va usullar


2020-2021 yillarda O'zbekistonda koronavirus infeksiyasi tarqalishining rasmiy statistik ma'lumotlari, Respublika maxsus yuqumli kasalliklar shifoxonasi Zangiota 2 da davolangan bemorlarning birlamchi tibbiy ma'lumotlarining statistik tahlili, retrospektiv tadqiqot usulidan foydalanilgan.

### Natijalar

Koronavirus infeksiyasi asosan, o'pka to'qimalarini zararlaydi. Buni oldini olish barcha tibbiyot xodimlaridan, ayniqsa anesteziologlar va reanimatologlardan muhim mas'uliyat talab etadi. Nafas yetishmovchiligi bilan xastalangan bemorlar bir qator o'ziga xos reanimatsion tadbirlarni o'tkazishni talab etadi. Og'ir nafas yetishmovchiligi bilan intensiv terapiya bo'limiga (ITB) qabul qilingan bemorlar, odatda 65 yoshdan katta bo'lib yondosh kasalliklari (qandli diabet, yurak ishemik kasalligi, serebrovaskulyar kasallik, nevrologik patologiya, gipertoniya, onkologik kasalliklar, gematologik kasalliklar, surunkali virusli kasalliklar, qon ivish tizimidagi kasalliklar) borligi bilan aziyat chekadilar. Bu omillarning barchasi reanimatsiya bo'limiga qabul qilingan bemorlar ko'rsatkichlariga ko'ra og'ir yoki o'ta og'ir bemorlar deb tasniflanishini bildiradi.

Respublika maxsus 2-son Zangiota shifoxonasida davolangan 10848 nafar bemorlarning taqsimlanishini tahlil qilganimizda jami kasallanganlarning 93% qismi kasalxonaning oddiy bloklariga, qolgan 7% qismi reanimatsiya bo'limiga qabul qilingan. Bundan 20 yoshgacha bo'lganlar jami bemorlarning 5,21% tashkil qilgan bo'lib, bu yosh guruhlari orasida reanimatsiyaga tushgan bemorlar umuman bo'lmagan. 21-50 yoshli bemorlar orasida oddiy bloklarga yotqizilganlar ulushi 33,1% ga to'g'ri kelmoqda. Ushbu yosh guruhlari reanimatsiyaga tushgan bemorlar jami reanimatsiyaga yotqizilganlarning 11,4% ni tashkil qilmoqda. Reanimatsiyaga tushgan bemorlarning 88,6% 51-61 va undan yuqori yosh guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. (1-rasm).

**1-rasm**  
Respublika maxsus 2 son Zangiota shifoxonasi bo'limlarida davolangan 10848 nafar bemorlarning yosh bo'yicha taqsimlanishi (%)



COVID-19 pandemiyasi sog'liqni saqlash tizimiga misli ko'rilmagan yukni qo'ydi, chunki butun dunyoda kasalxonalar va reanimatsiya bo'limlarida tibbiy yordamga bo'lgan talab tez o'sib bormoqda. Pandemiya avj olgan sari sog'liqni saqlash resurslariga (to'shaklar, xodimlar, asbob-uskunalar) bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash ko'plab mamlakatlar uchun asosiy ustuvor vazifaga aylanmoqda. Kelgusidagi shu resurslarga bo'lgan talabni tahmin qilish uchun COVID-19 bilan kasallangan bemorlar turli darajadagi statsionar yordamga qancha vaqt muhtoj bo'lishini baholash kerak.

Shifoxona xizmatlariga bo'lgan talabni tahmin qilish uchun kasalxonaga yotqizilishi kerak bo'lgan bemorlar sonini va xar bir kishi statsionar yordamga qancha vaqt muhtoj bo'lishini taxmin qilish kerak. Shu bilan birga, kasalxonalarda qolish muddatini baholash individual bemorlarni kuzatishni talab qiladi. Davolashning samarali usullari ko'payishi xodimlar, o'rinlar va jihozlar sonining yetariligi, parvarishning davomiyligi va darajasiga ta'sir qilishi mumkin.

Mamlakatimizda ham jami 1862 nafar bemorlarni qanchasi surunkali kasalliklar bilan kasallanganligini va ularning kasalxonada necha kun davolanishini tahlil qilganimizda, bemorlarning 974 (52,3±1,15%) tasi da surunkali kasalliklar mavjudligi aniqlandi va ularning o'rtacha davolanish muddati 12,3±0,17 kuni tashkil qilgan bo'lsa surunkali kasalliklari yo'q bemorlar 888 (47,7±1,15%) tani tashkil qilgan ularning davolanish muddati esa o'rtacha 9,5±0,15 kuni tashkil qilmoqda. Bundan ko'rinib turubti ki surunkali kasalliklari bor bemorlarning COVID-19 kasalligidan davolanish muddati uzoqroq bo'lmoqda.

Koronavirus infeksiyasining tarqalishi, o'lim holatlari, ayniqsa surunkali kasalliklari bor bo'lgan aholi guruhlari orasida ko'proq uchramoqda. Agar bemorda yurak qon-tomir kasalliklari va boshqa hamroh kasalliklardan asosiysi bo'lsa, u holda SARS-CoV-2 virusi bilan kasallanish o'lim ko'rsatkichining eng yuqori ko'rsatkichi bo'lishi mumkin [14,10]. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki qandli diabet (QD) bilan kasallangan bemorlar COVID-19 infeksiyasini yuqtirishgan-

da o'lim xavfi yuqori bo'lmoqda bu esa o'z navbatida COVID-19 o'limidan taxminan 3 marotaba yuqori [15,9]. COVID-19 bilan og'riqan bemorlarning o'limiga olib keladigan keng tarqalgan kasalliklardan yana biri bu dunyodagi o'limning asosiy sabablaridan biri hisoblanadigan gipertenziyadir. [6]. Potensial xavf omillari keksa odamlar va surunkali kasalliklari bo'lganlardir bunday aholi guruhlarini nazoratga olish kasallikni prognozlash va erta aniqlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda ham koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarning kasallikni qaysi surunkali kasalliklar bilan qay darajada o'tkazganligini tahlil qildik va baholadik. Bu albatta kelgusida kasallikni prognozlash va davolashga qaratilgan chora-tadbirlar ko'lamini kengaytirish va samaradorligini oshirishga va buning natijasida bemorlarni kasallikni og'ir va o'ta og'ir holatlarga tushib qolmasligini oldini olishga katta hissa qo'shadi. Biz buning uchun yurtimizda koronavirus kasalligiga chalingan bemorlarni davolash uchun maxsus tashkil

etilgan Respublika maxsus yuqumli kasalliklar shifoxonasida davolangan 974 nafar surunkali kasalliklari bor bemorlar surunkali kasalliklarning qaysi turlari bilan kasallanganligini va ularning o'rtacha davolanish muddati necha kunni tashkil qilganini bemor kartalaridan retrospektiv tahlil qildik. Olingan ma'lumotlarga ko'ra jami surunkali kasalliklari bor bemorlarning 2,9±0,53% da semizlik, 20,9±1,3% da qandli diabet, 16,8±1,19% da gipertoniya, 12,7±1,06% da nafas yo'llari surunkali kasalliklari, 1,6±0,4% da onkologik kasalliklar, 3,5±0,58% da anemiya, 21,8±1,32% da yurak ishemik kasalligi (YuIK), stenokardiya, qon-tomir kasalliklari, 5,5±0,73% da boshqa kasalliklar surunkali kasalliklari bor sifatida qayd etilgan. Ushbu bemorlarda o'rtacha davolanish muddati COVID-19 kasalligi YuIK, stenokardiya va gipertoniya kasalligi birga qayd etilganda 18,5±0,36 kunni, YuIK va semizlikda 16,2±0,37 kunni, YuIK va qandli diabetda 18±0,24 kunni tashkil qilgan (1-jadval).

1-jadval

**COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda surunkali kasalliklarning ulushi va ularning o'rtacha davolanish muddati**

Surunkali kasalliklar	Jami		O'rtacha davolanish kuni
	Abs.son	%	
Semizlik	28	2,9±0,53	10,2±0,14
Qandli diabet	204	20,9±1,3	9,6±0,15
Gipertoniya	164	16,8±1,19	11,0±0,2
Nafas yo'llari surunkali kasalliklari va surunkali bronxit	124	12,7±1,06	10,5±0,15
Onkologik kasalliklar	16	1,6±0,4	10,5±0,15
Anemiya	34	3,5±0,58	11,0±0,2
Gepatit B,C va jigar sirrozi	15	1,5±0,39	12,2±0,18
YuIK.Qon-tomir kasalliklari.stenokardiya.IBS	212	21,8±1,32	11,1±0,23
YuIK.Qon-tomir kasalliklari.stenokardiya.IBS va gipertoniya	93	9,5±0,94	18,5±0,36
Qandli diabet va gipertoniya	7	0,7±0,26	12,6±0,22
Surunkali buyrak yetishmovchiligi	10	1,0±0,32	12,4±0,18
YuIK va semizlik	5	0,5±0,22	16,2±0,37
YuIK va qandli diabet	8	0,8±0,28	18,0±0,24
Boshqa kasalliklar	54	5,5±0,73	8,1±0,12
Jami	974	100,0	12,3

### Xulosalar

1. Yurtimiz kasalxonalarida davolanayotgan bemorlarning kasallikni reanimatsiyada o'tkazayotganlarning ulushi (67,5±0,45%) asosan 61 va undan yuqori yosh guruhlariga hissasiga to'g'ri kelmoqda, bu esa o'z navbatida bu yosh guruhlariga kasallikni og'ir va o'ta og'ir holatda o'tkazishi mumkin bo'lgan xavf guruhlariga toifasiga kiritilishini ta'minlab beradi.

2. Xulosa qilib aytganda yurtimizda bemorlarning kasalxonalarda davolanish muddati surunkali kasalliklari bor bemorlarda 12,3±0,17 kunni surunkali kasalliklari yo'q bemorlarda 9,5±0,15 kunni o'rtacha davolanish kuni esa 10,4±0,14kunni tashkil qilmoqda.

3. Surunkali kasalligi bor bemorlar COVID-19 kasalligiga chalinish ehtimoli yuqori bo'lmoqda (52,3±1,15%), ularning orasida ayniqsa qandli diabet, gipertoniya kasalligi, nafas a'zolari surunkali kasalliklari va YuIK yuqori ulushlarni tashkil qilayotgan bo'lsa (72,2±1,03%), bu kasalliklar bilan kasallangan bemorlar COVID-19 kasalligini ham og'ir va o'ta og'ir darajada o'tkazishmoqda.

### Adabiyotlar

1. Clark A., Jeet M., Warren-Gash K., Guthrie B., Van H. H., Mercer S. W., Sanderson S., McKee M., Troeger S., Ong K. I. et al. How many people are at increased risk of severe illness from COVID-19? Operational global, regional and national estimates for 2020. MedRxiv. 2020. Available at: (<https://www.medrxiv.org/content/10.1101/2020.04.18.20064774>)

2. Clinical Characteristics of 138 Hospitalized Patients With 2019 Novel Coronavirus-Infected Pneumonia in Wuhan, China Dawei Wang, MD, Bo Hu, MD, [...], and Zhiyong Peng, MD JAMA. 2021 March 16; 325(11): 1113. (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7042881/#!po=3.12500>)
3. Clinical characteristics of 140 patients infected with SARS-CoV-2 in Wuhan, China Jin-Jin Zhang 1, Xiang Dong 1, Yi-Yuan Cao 2, Ya-Dong Yuan 3, Yi-Bin Yang 4, You-Qin Yan 5, Cezmi A Akdis 6, Ya-Dong Gao Allergy 2020 Jul;75(7):1730-1741. doi: 10.1111/all.14238. Epub 2020 Feb 27 (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/32077115/>)
4. Clinical features of patients infected with 2019 novel coronavirus in Wuhan, China Chaolin Huang 1, Yeming Wang 2, Xingwang Li 3, Lili Ren 4, Jianping Zhao 5, Yi Hu 6, Li Zhang 1, Guohui Fan 7, Jiuyang Xu 8, Xiaoying Gu 7, Zhenshun Cheng 9, Ting Yu 1, Jiaan Xia 1, Yuan Wei 1, Wenjuan Wu 1, Xuelei Xie 1, Wen Yin 6, Hui Li 2, Min Liu 10, Yan Xiao 4, Hong Gao 11, Li Guo 4, Jungang Xie 5, Guangfa Wang 12, Rongmeng Jiang 3, Zhancheng Gao 13, Qi Jin 4, Jianwei Wang 14, Bin Cao Lancet. 2020 Feb 15;395(10223):497-506. doi: 10.1016/S0140-6736(20)30183-5. Epub 2020 Jan 24 (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31986264/>)
5. Clinical, laboratory and imaging features of COVID-19: A systematic review and meta-analysis Alfonso J. Rodriguez-Morales, Jaime A. Cardona-Ospina, [...], and Latin American Network of Coronavirus Disease 2019-COVID-19 Research (LAN-COVID-19) (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7102608/>)
6. Dihn D.T., Frauman A.G., Jonston C.I., Fabiani M.E. Angiotensin receptors: distribution, signaling and function. Clinical. Sci. 2001. 100. 481-492. (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/11294688/>)
7. Eleanor M. Rees, Emily S. Nightingale, Yalda Jafari, Naomi R. Waterlow, Sam Clifford, Carl A. B. Pearson, CMMID Working Group, Thibaut Jombart, Simon R. Procter, Gwenan M. Knight. COVID-19 length of hospital stay: a systematic review and data synthesis. Rees et al. BMC Medicine (2020) 18:270 (<https://doi.org/10.1186/s12916-020-01726-3>)
8. Genomic characterisation and epidemiology of 2019 novel coronavirus: implications for virus origins and receptor binding Roujian Lu 1, Xiang Zhao 1, Juan Li 2, Peihua Niu 1, Bo Yang 3, Honglong Wu 4, Wenling Wang 1, Hao Song 5, Baoying Huang 1, Na Zhu 1, Yuhai Bi 6, Xuejun Ma 1, Faxian Zhan 3, Liang Wang 6, Tao Hu 2, Hong Zhou 2, Zhenhong Hu 7, Weimin Zhou 1, Li Zhao 1, Jing Chen 8, Yao Meng 1, Ji Wang 1, Yang Lin 4, Jianying Yuan 4, Zhihao Xie 4, Jinmin Ma 4, William J Liu 1, Dayan Wang 1, Wenbo Xu 1, Edward C Holmes 9, George F Gao 10, Guizhen Wu 1, Weijun Chen 4, Weifeng Shi 11, Wenjie Tan 2020 Feb 22;395(10224):565-574. doi: 10.1016/S0140-6736(20)30251-8. Epub 2020 Jan 30. (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/32007145/>)
9. Leung C. Clinical features of deaths in the novel coronavirus epidemic in China. Rev. Med. Virol. 2020. e2103. doi: 10.1002/rmv.2103. (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/32175637/>)
10. Li B., Yang J., Zhao F. et al. Prevalence and impact of cardiovascular metabolic diseases on COVID-19 in China. Clin. Res. Cardiol. 2020. (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/32161990/>)
11. Review of the Clinical Characteristics of Coronavirus Disease 2019 (COVID-19) Fang Jiang 1, Liehua Deng 2, Liangqing Zhang 3, Yin Cai 1, Chi Wai Cheung 1, Zhengyuan Xia 4 (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/32133578/>)
12. The continuing 2019-nCoV epidemic threat of novel coronaviruses to global health - The latest 2019 novel coronavirus outbreak in Wuhan, China David S Hui 1, Esam I Azhar 2, Tariq A Madani 3, Francine Ntoumi 4, Richard Kock 5, Osman Dar 6, Giuseppe Ippolito 7, Timothy D Mchugh 8, Ziad A Memish 9, Christian Drosten 10, Alimuddin Zumla 11, Eskild Petersen 12 Int J Infect Dis. 2020 Feb;91:264-266. doi: 10.1016/j.ijid.2020.01.009. Epub 2020 Jan 14. (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31953166/>)
13. Wu Z, McGoogan JM. Characteristics and Important Lessons of the 2019 Coronavirus Disease (COVID-19) Outbreak in China: Summary of China Center for Disease Control and Prevention Report of 72,314 Cases. JAMA. 2020; 323(13):1239-42. Available at: (<https://jamanetwork.com/journals/jama/fullarticle/2762130>)
14. Xiong T.Y., Redwood S., Prendergast B., Chen M. Coronaviruses and the cardiovascular system: acute and long-term implications. Eur. Heart J. 2020. (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/32186331/>)
15. Yang X., Yu J. et al. Clinical course and outcomes of critically ill patients with SARS-CoV-2 pneumonia in Wuhan, China: a single-centered, retrospective. Observational study. Lancet Respir. Med. 2020, doi: 10.1016/S2213-2600(20)30079-5 (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/32105632/>)

## SURUNKALI KASALLIKLARI BOR BEMORLARDA COVID-19 KASALLIGI KECHISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamatqulov B.M., Nematov A.A.

**Maqsad:** COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning yosh guruhlari orasida reanimatsiya va oddiy bo'limlarda davolanish ulushini va surunkali kasalliklari bor bemorlarda COVID-19 kasalligining kechish xususiyatlarini o'rganish. **Material va usullar:** 2020-2021 yillarda O'zbekistonda koronavirus infeksiyasi tarqalishining rasmiy statistik ma'lumotlari, Respublika maxsus yuqumli kasalliklar shifoxonasi Zangiota 2 da davolangan bemorlarning birlamchi tibbiy ma'lumotlarining statistik tahlili, retrospektiv tadqiqot usulidan foydalanilgan. **Natijalar:** reanimatsiyaga tushgan bemorlarning 88,6% 51-61 va undan yuqori yosh guruhlari xissasiga to'g'ri kelmoqda. Bemorlarning 974 (52,3±1,15%) tasi da surunkali kasalliklar mavjudligi aniqlandi va ularning o'rtacha davolanish muddati 12,3±0,17 kunni tashkil qilgan bo'lsa surunkali kasalliklari yo'q bemorlar 888 (47,7±1,15%) tani tashkil qilgan ularning davolanish muddati esa o'rtacha 9,5±0,15 kunni tashkil qilmoqda. **Xulosa:** yurtimiz kasalxonalarida davolanayotgan bemorlarning kasallikni reanimatsiyada o'tkazayotganlarning ulushi (67,5±0,45%) asosan 61 va undan yuqori yosh guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Xulosa qilib aytganda yurtimizda bemorlarning kasalxonalarda davolanish muddati surunkali kasalliklari bor bemorlarda 12,3±0,17 kunni surunkali kasalliklari yo'q bemorlarda 9,5±0,15 kunni o'rtacha davolanish kuni esa 10,4±0,14 kunni tashkil qilmoqda.

**Kalit so'zlar:** COVID-19, SARS-CoV-2, surunkali kasalliklar, Intensiv terapiya bo'limi.

